

"USTINA" RADIFLI G'AZALI TAHLILI

Nukus DPI talabasi - Yusupbayeva Gulsara

Nukus DPI talabasi - To`xtaboyeva Venera

Sharq mumtoz adabiyotida an'anaviylik ustuvor. Yangilik va novatorlik uning zaminida yuzaga chiqadi. Adabiyotdagi bu jarayonni, ya'ni an'ana va novatorlik munosabatini belgilashda o'zbek mumtoz adabiyotidagi nazira –g'azallar muhim o'rin tutadi. Ushbu g'azal o'zbek mumtoz adabiyotidagi eng mashhur asarlardan biri sanaladi. G'azalning birinchi baytidayoq Ogahiyning an'ana zaminida o'ziga xos yangilik, badiiy kashfiyotga erishish iste'dodi namoyon bo'ladi. Keling, buni birgalikda kuzataylik.

Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,

Qatlim uchun «nas» keltirur «nun» eltibon «sod» ustina.

Qora qoshining hayati ya'ni haybati xuddi chashmi jalloddek, chashmi -ko'z bu yerda ko'zni jallodga o'xshatadi. Ya'ni yorni jonini olguvchiga jallodga o'xshatadi. Endi ko'zni ustiga nun va sod harflarini olib borish ya'ni ularni kamonga qiyoslanayapti. Nun harfi aylana shaklida bo'ladi, nun harfining ichidagi nuqta yorning ko'zining qorachig'iga o'xshatilyapti. Ogahiyning badiiy iste'dodini namoyon qiluvchi go'zal tasvir keltirilgan. Maqtada ma'shuqaning qoshi va ko'zi ta'rif etilmoqda. Mushkin "mushk" so'zidan yasalganligini bilasiz. U ham qoralik, ham xushbo'ylikni ifodalaydi. Arab alifbosida "nun" qoshga, "sod" ko'zga o'xshashligidan foydalanib, shoir yor go'zalligining o'ziga xos tasvirini yaratadi. "Nun"ni "sod"ning ustiga qo'yilsa (ya'ni avval "nun", keyin unga qo'shib "sod" yozilsa), "nas", ya'ni "hukm" so'zi hosil bo'ladi. Bu hukm (nas)ga ko'ra oshiq qatl etilishi kerak. Chunki "nun"ga o'xshash mushk rangli qosh hamda "sod"ga o'xshash ko'z o'zlarining yor yuzidagi ko'rinishi (hay'ati) bilan bu hukmni chiqarganlar. Shu bilan bir qatorda shoir "nun" va "sod" harflari shakli vositasida ko'zu qosh suratini ham chizib berishga erishadiki, bu Ogahiy mahoratining betakror va serqirraligini ko'rsatadi.

Bu misrada nun va sod so'zlarini keltirib kitobot san'atini qo'llagan. Kitobot san'ati arab alifbosi harflarini she'r da qo'llanilishi. chashmi jallod-ko'zni jallodga o'xshayapti bu yerda tashbeh

Qilg'il tamosho qomati, zebosi birla orazin,

Gar ko'rmasang gul bo'lg'onin payvand shamshod ustina.

Uni tamosho qil qomatini chiroyi bilan yuzini, gar ko'rmasang gul bo'lganin payvand shamshod ustina. Ogahiy keyingi baytda ham yor ta'rifini davom ettiradi. Ya'ni yorning zebo qomati va gul yuzi madhini tanosub va istiora san'atlari vositasida bayon etadi. Mazkur baytda shoir yorning qaddini shamshod (sarvga o'xshagan xushqomat va chiroyli daraxt), yuzini gulga qiyos etadi. Fikrini esa hayotiy misol bilan

asoslaydi. Ya'ni, tabiat shamshodga gul bitishni ham nasib qilgan. Bu bilan shoiryorning latofatini to'laqonli aks ettiradi. Bu yerda qomat ,zebo,oraz-so'zlari tanosub Ogahiy adabiyotimizga payvandlash usulini olib kiradi. Bogdorchilikka xos. Ogahiy yorni qomatini shamshod daraxtiga o'xshatadi. Shamshod daraxtiga o'xshatish tashbeh

Noz-u ado-vu g'amzasi qasdim qilurlar dam-badam,
Vah, muncha ofatmu bo'lur bir odamizod ustina.

Yorning noz va adosi meni jonim uchun qasd qiladi dam-badam Shunchalar ham ofat bo'ladimi odamizod ustina. Ogahiy uchinchi baytda ham ma'shuqa ta'rifi va holati haqidagi fikrlarini davom ettiradi. Yorning "nozu adou g'amzasi" dam-badam oshiqqa qasd qilishini, odamizod ahliga (oshiqqa) shunchalik "ofat" yetkazish mumkinmi, -deya gumonlanadi. Tajohulu orif san'ati shoirning muddaosini ro'yobga chiqarishga xizmat qilgan. Bu baytda noz, ado, g'amza so'zlari tanosub san'ati

Man xastag'a jon asramoq emdi erur dushvorkim,
Qotil ko'zi bedod etar har lahza bedod ustina.

Men xastaga jonni asramoq endi qiyin, qotil kozi bedod etar ustina. Ogahiy ishqdan xasta bo'lgan oshiqning jon asrashini dushvorligini, chunki "qotil ko'zi bedod" (ma'shuqa) dan har lahza "bedod" (jabr ustiga jabr) etayotganligini ta'kidlaydi

Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko'ngul shom-u sahar,
Bulbuldek aylar yuz navo ming nav faryod ustina.

Uning gul yuzi shavqi bilan oshiq ko'nglim kecha va kunduz, bulbul kabi yuz navo aylar faryod ustina. Ogahiy ham keyingi baytda ma'shuqa yuzining shavqi bilan oshiq ko'ngli shomu sahar shaydo ekanligini ta'kidlaydi. Shoir oshiqning bu holatini bulbulning ming turli faryod ustiga nolaqilishiga tashbeh qiladi. Bu misrada shom-sahar so'zlari tazod san'atini yuzaga keltiradi. Tazod qarama qarshi so'zlarni qo'llash san'ati. Bulbuldek-tashbeh o'xshatish san'ati

Boshimg'a yoqqon g'am toshin mingdin biricha bo'lmag'ay,
Gardun agar ming Besutun yog'dursa Farhod ustina.

Boshimga yoqqan gam toshining mingdan biricha bo'lmag'ay, Osmon agar yog'dirsa ming Besutun Farhod ustina. Ogahiy ruhiy holat ifodasi uchun juda chiroyli va o'rinli talmehdan foydalangan. Ya'ni, falakning Besutun tog'idagi toshlarni Farhod ustiga yog'dirgani, mening boshimga yoqqan g'am toshlarining mingdan biriga ham teng bo'lolmaydi, deydi. Bu misralarda g'am toshi-tashxis san'ati ni yuzaga keltiradi. Tashxis insonga xos bo'lgan narsalarni jonsiz narsalarga ko'chirish. Ogahiy Besutun va Farhod so'zlari talmeh san'ati

Ey shah, karam aylar chog'i teng tut yamon-u yaxshini,
Kim mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina.

Ey shoh sahovat vaqti teng tut yomon va yaxshini, kim mehr nuri teng tushar vayron -obod ustina. Ayni mulohazalarini davom ettirib, navbatdagi baytda shohga

murojaat qilib, karam aylar chog'ida hammani – yaxshi yomonni teng tutishini so'raydi. O'z fikrlarini tamsil – hayotiy dalillash asosida ifodadaydi. Ya'ni mehr-quyosh nuri vayronu obod ustiga teng tushadi. Shunday ekan, shohham barchaga teng karam ko'rsatmog'i lozimligini uqtiradi: Ogahiy fikr-g'oyalarini tabiat va hayot hodisalari bilan mutanosib tarzda, tamsil san'ati vositasida, noyob ifodalarda asoslaydi. Shoir kuzatuvchanligi, noyob tafakkur miqyosi ifoda shakli bilan hayratlanarli darajada uyg'unlik kasb etadi. Bu yerda ey shah nido san'ati, yomon va yaxshi tazod san'ati, mehr nuri-tashxis san'ati

Xoki taning barbod o'lur oxir jahonda necha yil,
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurub bod ustina.

Xoki taning barbod o'lar oxir jahonda necha yil, sayr et Sulaymondek agar taxting qurib shamol ustida. Bu baytda inson zotiga qaratilgan, hech qachon eskirmaydigan buyuk saboq mujassam. Unda shoir olamning o'tkinchiligini eslatish orqali, insoniyatni ezgulik bilan yashashga, umrning har bir kunini g'animat bilishga da'vat etadi. Bu esa g'azalning umumbashariy ahamiyatini ko'rsatadi. Sulaymondek-talmeh. Bod-shamol

Ne jur'at ila Ogahiy ochg'ay og'iz so'z dergakim,
Yuz xayli g'am qilmish hujum ul zori noshod ustina.

Qanday jurat ila ochadi Ogahiy so'z, yuz g'am qilmish humum noshod ustina. Ogahiy hayotiy tahdidlarga sabab bo'lishi mumkinligiga qaramasdan, haqiqiy she'r va shoir shuuridagi ulkan odamiylik burchini bajarishni vazifasi deb bildi.

Foydalangan adabiyotlar.

- [1] Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi? Toshkent, Sharq nashriyoti. 1999. 94
- [2] Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, O'qituvchi nashriyoti, 1964. B-347- 376
- [3] Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent. Fan nashriyoti. 2009. B-221-232
- [4] Navoiy asarlar lug'ati. Alisher Navoiy asarlarining o'n besh tomligiga ilova. Toshkent. G'ofur
G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1972. 782
- [5] Ogahiy she'riyatidan. Toshkent. 1983. 120 b.
- [6] Majidiy R. Ogahiy lirikasi. Toshkent. O'zbekiston FA nashriyoti. 1953. 238
- [7] Munirov Q. Ogahiy. Toshkent, O'zbekiston FA nashriyoti. 1969. 54b
- [8] Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent. Fan nashriyoti. 2009. 22b
- [9] Mallayev M., Karimov K., Ismatov I. O'zbek adabiyoti tarixi. O'qituvchi. 1982